

4. Meeting of the President of Georgia with the Majority Members of Georgia's Supreme Legislative Body in Anaklia // Web-site of President of Georgia – www.president.gov.ge.
5. Маргвелашвили Г. Ежегодный доклад в высшем законодательном органе страны. 21 февраля 2014. // Веб-сайт Президента Грузии – www.president.gov.ge.
6. Дзыбова С.Г. Институт делегированного законотворчества // Вестник Адыгейского государственного университета. - 2006. - №2. - С.131-134.
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимиз қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 44-б.
8. Ўзбекистон Республикасининг Парламент назорати тўғрисидаги ЎРҚ-403-сон Қонуни. www.lex.uz
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси ҳақида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, №6, 2017 www.lex.uz
10. Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 12 июлдаги Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузасидан. www.prezident.uz
11. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2020 йил 27 февралдаги № 149-IV/КҚ-16-IV-сонли қўшма қарари. www.lex.uz
- REZYUME.** Mazkur maqolada xalqaro hamjamiyatda parlamentarizm faoliyatining ayrim tomonlari talqin qilinadi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi yutuqlar borasida so'z yuritiladi. Jamoat nazoratining hayotiy ahamiyati ochib beriladi, milliy parlamentni rivojlantirish islohatlari talqin qilinadi.
- РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются некоторые аспекты парламентаризма в международном сообществе. Проанализируются достижения нового этапа развития Узбекистана. Раскрывается жизненно важное значение общественного контроля и объясняются реформы развития национального парламента.
- SUMMARY.** This article examines some aspects of parliamentarism in the international community. The achievements of the new stage of development of Uzbekistan will be analyzed. The vital importance of public control is revealed and reforms to the development of the national parliament are explained.

QORAQALPOQ XALQINING ZAMONAVIY NIKOH TO'YI MAROSIMLARINING TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI VA MILLIY MA'NAVIYAT

B.K.Bekjanova – *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: nikoh, oila, to'y-hasham, oilaviy tadbir, zamonaviylik, isrofgarchilik, dabdababozlik, tartiblashtirish, qadriyatlar, qaror, nizom, davlat dasturi.

Ключевые слова: женитьба, семья, свадьба, семейное мероприятие, современность, экстравагантность, помпезность, регулирование, значимости, решение, закон, государственная программа.

Key words: marriage, family, wedding, family event, modernity, extravagance, pomposity, regulation, significance, decision, law, state program.

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy hayotimizda milliy marosimlarning muayyan qismining milliy qadriyatlarga aylanish, urf-odatlarining ma'lum bir qismining saqlanib qolinishi, madaniy vorisiylik jarayonlarining qayta tiklanishi, yangi qadriyatlar, urf-odat va an'analarning yaratilishi kabi jarayonlar kechayapti. Ayniqsa, oila va nikoh bilan bog'liq qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti barqarorligini ta'minlab beruvchi mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etayapti [1].

Qoraqalpoq xalqi an'anaviy turmush tarzi, marosim, urf-odatlari va boshqa xalqlar kabi hayotning boshqa sohalarida ro'y berayotgan davr talabi, fan-texnika taraqqiyoti hozirgi zamon bilan uyg'unlashgan holda o'zgarib bormoqda. Ba'zida esa, qadimiy milliy urf-odatlarimizni boshqa yot narsalar, qadimiy e'tiqodlar, azaliy turkiy urf-odatlar, islomiy urf-odat marosimlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ommaviy madaniyat ko'rinishlari va boshqada bizning milliy madaniyatimizga xos bo'lmagan udumlarni bir-biri bilan aralashtirib yubormoqda.

Shu bilan bir qatorda, ana shu o'zgarishlar jarayonida to'y-hasham, ma'raka-marosimlar o'tkazishda milliy ma'naviyatimizga zid holatlar namoyon bo'layapti. Masalan, xalqning to'y-marakaga haddan tashqari berilib ketishi, hatto buni ongli hayotning asl mazmuni darajasida bilib, topgan-tutganining katta qismini shunga sarf etishi, nikoh to'ylarini kattalashtirib yuborish, dabdababozlik, shuhratparastlik, ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'yish kabi holatlarni uchratishimiz mumkin [2].

Bunday illatlar hamma zamonlarda ham bo'lgan va bu holat ilg'or ziyolilarni va keng jamoatchilikni bezovta qilib kelgan. Bunday salbiy holatlarning avj olishi ming-minglab oilalarning, nafaqat, ijtimoiy ahvoliga, balki butun hayotiga, qolaversa, jamiyatimizda qaror topgan ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi, so'zsiz.

Shuning uchun ham bunday holatlarga chek qo'yish, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholi, ayniqsa,

yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni qat'iy tartibga solishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Sababi, jamiyatda yuzaga kelgan har qanday muammo o'z yechimini topishi, illatlar bartaraf etilishi lozim. Shunday qilinmasa, ma'naviy tanazzul yuz beradi, ma'naviyat o'rnini ma'naviyatsizlik egallaydi [3].

Yoqoridagi vazifalardan kelib chiqib, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda yuz berayotgan salbiy illatlarga barham berish, to'y-hasham, oilaviy tadbirlar, ma'raka-marosimlarni tartibga solish, ixcham va batartib, ma'naviy jihatdan yuksak, iqtisodiy jihatdan esa kamchiqim o'tkazishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi №2736-III/KQ-592-III-sonli qo'shma Qarori qabul qilindi [4].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining mazkur Qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi, deputatlari, viloyat, tuman va shahar kengashlarida, shuningdek fuqoralar yig'inlarida to'ylar, ma'raka va marosimlarni o'tkazilishini tartibga solish masalalari bo'yicha komissiya (hududiy komissiyalar deb yuritiladi) tuzildi. Ushbu hududiy komissiyalarga asosan quyidagi vazifalar: to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishi ustidan jamoatchilik nazorati o'tkazilishini tashkil etadi, shuningdek, bu borada monitoringni amalga oshirish; keng rioya jamoatchilik fikrini o'rgangan holda to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish; to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham, isrofgarchiliksiz va belgilangan talablar asosida o'tkazish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish hamda o'rnatilgan tartibga etmagan fuqoralarni

mahalla fuqoralar yig'ini qatnashishga taklif qilgan holda jamoatchilik o'rtasida muhokama qilish kabi qator muhim vazifalarni bajarish belgilangan.

Ushbu Qarorda belgilangan vazifalar har birimizni o'ylab ko'rishga, to'y-hasham, ma'raka-marosimlar bilan bog'liq qarashlarimizni o'zgartirib, ularni milliy an'analarimiz va zamon talablariga moslashtirishga da'vat etadi.

Qarorda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida «To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi [5].

Nizomning «Umumiy qoidalar» deb nomlangan 1-bobida oilaviy tadbirlar o'tkazilishini tartibga solishda ijtimoiy adolat va qonuniylik, milliy urf-odat va qadriyatlarga sodiqlik, boshqa din va millat vakillarining urf-odatlarini hurmat qilish hamda jamoatchilik fikrini inobatga olish tamoyillariga asoslanganligi ko'rsatilgan.

Nizomning «To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazish tartibiga qo'yiladigan umumiy talablar» deb nomlanuchi ikkinchi bobning 3 bandida oilaviy tadbirlar, to'y-hashamlar soat 06:00 va 23:00 oralig'ida o'tkaziladi. Soat 23:00 dan keyin oilaviy tadbirlarni davom ettirishga yo'l qo'yilmaydi. To'ylar, oilaviy tantanalarda 200 nafargacha, qo'shaloq to'ylarda 250 nafargacha kishi qatnashishi mumkin ekanligi ko'rsatilgan.

To'y-tomoshalarni tartibga solish murakkab va bir-ikki tashkilot aralashuvi bilan hal bo'lib ketaveradigan muammo emas. Bu borada ko'ngildagidek holatlarga erishish uchun hamma qo'lni-qo'lga berib, bir maqsadga intilishi, barcha mutasaddi tashkilotlar birlashib, sa'y-harakatlar olib borishi kerak. Shuning uchun ham Nizomning «Oilaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoatchilik va davlat nazorati» deb nomlanuvchi 3-bobida oilaviy tadbirlarni, jumladan, nikoh to'ylarini o'tkazishni tartibga soluvchi bir qator davlat organlari va ijtimoiy tashkilotlarning vazifalari belgilab berilgan. Bunga ko'ra, «To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar»ni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi va hududiy komissiyalar, fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi, Respublika «Nuroni» jamg'armasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston musulmonlar idorasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida oilaviy tadbirlar o'tkazilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

Mahalla to'y-hasham va ma'rakalarni tartibga solish, me'yoriylashtirishning eng asosiy mexanizmi hisoblanadi. Birinchi navbatda, to'y-marosimlarni mahalla faollari nazorat qilishi lozim. To'y egalari bilan alohida suhbatlar uyushtirish, ortiqcha chiqimlarning oldini olish, kerak bo'lsa, kam ta'minlangan oilalarga baholi qudrat yordam berish zarur. Nizomning 3-bobi 14-bandida Mahalla fuqoralar yig'ini va «Nuroni» jamg'armasi va ularning hududiy bo'linmalarining to'ylarni o'tkazishni tartibga solish borasidagi vazifalari belgilangan: to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazish bilan bog'liq milliy va diniy qadriyatlarga, axloq qoidalariga zid bo'lgan marosimlar, nomaqbul odatlar va ularning salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishi va tegishli tavsiyalar berishi; to'y egalari tomonidan sodir etiladigan milly urf-odat va an'analarni mensinmaslik, shuhratparastlik, isrofgarchilik, kabi hatti-harakatlar ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishi, tegishli talablarga rioya etilmagan holatlarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish; to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham, keng aholi manfaatlarini, milliyqadriyat va an'analarni hisobga olgan holda, ijtimoiy

tabaqalanishga yo'l qo'ymasdan o'tkazish bo'yicha jamoaviy suhbatlar tashkil etish; hududda o'tkazilishi rejalashtirilgan har bir oilaviy tadbirdan xabardor bo'lishi, uning o'tkaziladigan joyi, ishtirokchilar soni bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi; to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlardan, oldin va keyin o'tkaziladigan ortiqcha rasm-rusm va marosimlarning oldini olish choralarini ko'rishi lozim.

To'y-hasham ham ma'raka-marosim ham milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Nizomda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga quyidagi vazifalar yuklatilgan: to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarda milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan «ommaviy madaniyat» unsurlari namoyon bo'lishining oldini olish maqsadida muntazam ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib borish; ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali namunali to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishi, ijtimoiy roliklar yaratishi, uslubiy qo'llanmalar va targ'ibot materiallarini tayyorlash.

Biron-bir to'y yoki marosim xotin-qizlarning ishtirokisiz o'tmaydi, albatta. To'y-marosimlar borasidagi ko'pdan-ko'p ishlar, asosan ayollarning da'vati, orzu-havasi bilan yuz beradi. Shu jihatdan olib qaraganda, Xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari sirasiga to'y-marosimlarni tartibga solish, bu borada milliy, umuminsoniy an'analarga mos talablarga erishish ham kiradi. Nizomning 3-bobi 16-bandida Xotin-qizlar qo'mitasi va Oila milmiy-tadqiqot markazi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazishni rejalashtirgan oila vakillari bilan, ayniqsa nikohning ilk davrlarida er-xotin va ular o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash borasida suhbatlar tashkil etish; xotin-qizlarga to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni kamxarj qilib o'tkazishni, ularda ortiqcha isrofgarchilikka berilish oila iqtisodiga va yosh oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatishni hayotiy misollar orqali keng tushuntirish;

O'zbekiston yoshlar ittifoqiga: turmush qurish arafasida turgan yoshlar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar uyushtirishi, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o'tkazish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;

FHDYO organlariga: nikohdano'tish maqsadida ariza bergan shaxslar hamda hamda ularning ota-onalari bilan yashash joylarida, mahallada suhbatlar uyushtirish, ularga nikohdan o'tish tartib-tamoyillari, to'y marosimlarini kamxarj va ixcham o'tkazish bo'yicha tushuntirish berish;

Ichki ishlar organlari profilaktika inspektori fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda fuqarolar o'rtasida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o'tkazishga, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini aholi ongiga singdirishga, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning shuhratparastlik, dabdaba bilan o'tkazilishining oldini olishga qaratilgan aniq va maqsadli profilaktik tadbirlarni tashkil etishi, shuningdek, bunday tadbirlar davomida jamoat tartibini ta'minlashi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari oilaviy tadbirlarni, jumladan, nikoh to'ylarini o'tkazishga oid qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan doimiy deputatlik nazoratini amalga oshiradi. Deputatlik nazorati natijalari buyicha mahalliy urf-odatlar, milliy an'analardan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari oilaviy tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq boshqa qo'shimcha talablar hamda tavsiyalar berib boradi.

Qarorda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida «To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni tartibli o'tkazishni ta'minlash bo'yicha» chora-tadbirlar Dasturi qabul qilindi. Ushbu Dastur 3-bo'lim va 26 baddan iborat bo'lib, unda to'ylar, oilaviy

tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazish tartibi yuzasidan qonun hujjatlarini takomillashtirish, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini olib borish, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o'tkazish bo'yicha targ'ibot va tashviqot tadbirlarini olib borish hamda ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar o'z aksini topgan [6].

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Biroq, shunga qaramasdan ushbu sohada bir qator jiddiy muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, ayrim fuqarolar to'y marosimlarni Nizomda 200 qo'shaloq to'ylarda 250 kishidan ko'p bo'lmisligi kerakligi ko'rsatilgan bo'lsa ham ayrim fuqarolar to'yni kattalashtirib yuborayapti. Bu holat boshqalarni ham shunday qilishga majburlab qo'yishi mumkin. Maoshga ro'zg'or tebratadigan oilalar bu to'ylarni ko'rib ko'ngli o'ksiydi. Ba'zilar boshqalarga ergashishga, ko'r-ko'rona taqlid qilishga moyillik bo'ladi. Barchamizga ayonki, to'y marosimlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar yoqmaydi. Biroq, odamlarda to'y-tomoshalarga qancha ko'p odam kelsa, to'y egasi to'y egasi shuncha obru-e'tiborli ekan. Agarda kam odam kelsa to'y egasining obro'si, odamlar bilan bordi-keldisi yo'q ekan degan tushuncha saqlanib qolgan va to'ylar soxta obro' o'ttirishning vositasiga aylanib qolgan. Oqibatda, bankdan kredit olib bo'lsa ham katta to'y qilishni istashadi. To'yga to'yona olib borish turkiy xalqlarda qadimdan kelayotgan udum. To'yga to'yona sifatida har kim o'zining ko'nglidan chiqqanini olib boradi. Odamlarning olib keladigan to'yonasiga, ishonib berilgan to'y, to'ydan oldingi marosimlar va to'yni o'tkazishga sarflangan katta xarajatlar sababli o'zini-o'zi qoplamay aksariyat oilalar qarzdor bo'lib qoladi. Qarzini to'lash uchun xorijiy davlatlarga chiqib ketishadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerak, hozirda o'tkazilayotgan to'ylarda behudagarchilikka, isrofgarchilikka yo'l qo'yilayapti. Ochig'ini aytganda to'ydan keyin ortib qolgan noz-ne'matlar uvoldan boshqa narsa emas. To'yda qo'yildigan oziq-ovqatlar turini

kamaytirish, dasturxonga faqat kerakli noz-ne'matlarni quyish zarur. Oz va soz bo'lsin. Nikoh to'ylaridagi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan har xil ovqatlarni iste'mol qilish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Kelin ijaraga oladigan ko'ylaklar masalasini ham o'ylab ko'rish kerak. Birinchidan, bu ko'ylaklarning narxi ancha yuqori. Qolaversa, u ko'ylaklarni qancha odam ijaraga olib kiyadi. Gigiyena madaniyatiga to'g'ri keladimi shu. To'yga taklif etilgan raqqosaning davrani aylanib, mehmonlarni noqulay vaziyatga qo'yib ulardan pul yig'ishi, ikki tomonga sarpo berish, qizga ko'p miqdorda sep berish, keraksiz har xil o'ylab topilgan qa'dalar, kelinning tufisini olib qochib sotish, qo'g'irchoq sotish kabi har xil keraksiz sarf-xarajatlar masalasini ham o'ylab ko'rish kerak.

Rivojlangan davlatlar misolida olib qaraydigan bo'lsak "Ular aynan isrofning oldini olib, mehnat-mashaqqat bilan topilgan har qanday mablag'ini aql-idrok bilan, tartib-qoida, me'yor bilan sarflab, ana shunday asta-sekinlik bilan yillar mobaynida o'ttirilgan boylikni ishlab chiqarishga, ilm-fan rivojiga, odamning aqliy salohiyati, ilm-ma'rifat, texnika-texnologiyaga sarflab, imkon qadar qo'l mehnatini kamaytirishga intilib, yuksak turmush faovonligiga erishgan [7].

To'y-marosimlarning ixcham, kamtorona o'tishini ta'minlash, ortiqcha mablag' bo'lsa, yosh oilaning moddiy asoslarini shakllantirishga ishlatilsa, endigina bunyod bo'layotgan oilaning negizini shakllantirishga ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib aytgandigan bo'lsak, oila va nikoh bilan bog'liq qadriyatlarga hurmatsizlik omillarini bartaraf qilish, nikoh marosimlarini ixcham, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga mos, milliy qadriyatlar asosida o'tkazilishida jamoatchilik nazorati hamda monitoringini kuchaytirish talab etiladi. Shuningdek, talaba yoshlar o'rtasida oilaning muqaddasligi, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning ixcham va tartibli o'tkazilishi bo'yicha uchrashuvlar, tadbirlar, davra suhbatlari, maxsus o'quv mashg'ulotlari, ochiq darslar tashkil qilish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o'tkazish buyicha targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2019 йил 14-сентябрда "Тўй-ҳашамлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар, марҳумларнинг хотирасига бағишланган тadbirlar ўтказилишини тартибга солиш тизimini янада такомиллаштириш тўғрисида"ги №2736-III/КК-592-III-сонли Қарори/ <http://www.regulation.gov.uz/uz/documents/2128>.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'i tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik mezonini bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. 43-b.
3. Туйларимиз маърифати. – Тошкент: "Musiq" нашриёти, 2019. 5-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2019 йил 14-сентябрда "Тўй-ҳашамлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар, марҳумларнинг хотирасига бағишланган тadbirlar ўтказилишини тартибга солиш тизimini янада такомиллаштириш тўғрисида"ги №2736-III/КК-592-III-сонли Қарори/ <http://www.regulation.gov.uz/uz/documents/2128>
5. «Тўй-ҳашамлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар, марҳумларнинг хотирасига бағишланган тadbirlarни ўтказиш тартиби тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Низоми // <https://lex.uz/ru/docs/5153833>
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2019 йил 14-сентябрда «Туйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар утказилишини тартибга солиш тизimini янада такомиллаштириш тўғрисида»ги №2736-III-сонли қўшма Қарори асосида қабул қилинган «Туйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларни тартибли утказишни таъминлаш бўйича» чора-тadbirlar Дастури/ <https://lex.uz/ru/docs/5153833>
7. Олим Султанмурод. Туй-маросимлар ва миллий маънавият /С. Олим; масъул мухаррирлар: К. Куронбоев, Ж. Иногамов; Республика маънавият ва маърифат кенгаши, Республика маънавият тарғибот маркази, "Махалла" жамоат фонди Тошкент шаҳри бўлими қошидаги "Жамоатчилик кенгаши". – Тошкент: "Маънавият", 2014. 25-б.

РЕЗЮМЕ. Maqola to'y marosimlarimiz bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan. Nikoh to'yi marosimlarini zamon talabi, milliy ba diniy an'analarimizga mos ravishda kamxarj va ixcham o'tkazish bilan bog'lik masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, to'y-ma'rakalarni tartiblashtirish bo'yicha davlatimiz tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar va qabul qilingan qonunosti hujjatlarining mazmun-mohiyati hamda ahamiyati yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена проблемам, связанным с нашими свадебными церемониями. Освещаются вопросы, связанные с проведением свадебных церемоний в соответствии с требованиями времени, национальными и религиозными традициями. Также были освещены мероприятия, проводимые нашим государством по упорядочению свадебных торжеств, а также содержание и значение принятых подзаконных актов.

SUMMARY. The article is devoted to the problems associated with our wedding ceremonies. The issues related to the conduct of wedding ceremonies in accordance with the requirements of the time, national and religious traditions are highlighted. The events held by our state to streamline wedding celebrations, as well as the content and significance of the adopted by-laws were also highlighted.